

## OLIV TA'LIM MUASSASASI TALABALARI O'RTASIDA EKOLOGIK ONG VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

**X.Orziqulov**

*Qo'qon universitet*

*Pedagogika va Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

*xusnidinorziqulov@gmail.com*

**B.Usanov**

*Qo'qon universitet*

*Psixologiya yo'nalishi 1 – bosqich talabasi*

*usanovbehruz59@gmail.com*

### **Annotatsiya**

*Inson tabiat bilan , ya'ni o'simliklar hamda hayvonot dunyosi hamda yer osti va yer usti boyliklari bilan o'zaro muloqotda bo'ladi . Ekalogik muammolar kengayib , ularni hal etish dolzarb vazifa bo'lib qolgan hozirgi davrda bu muammolarni hal qilishda insoniyat uchun asosan ekalogik ong va ekalogik madaniyatning o'rni beqiyosdir*

### **Аннотация**

*Человек взаимодействует с природой, то есть с растениями и животными, а также с подземными и наземными ресурсами. В современную эпоху, когда экологические проблемы расширяются и их решение становится актуальной задачей, роль экологического сознания и экологической культуры человечества в решении этих проблем несопоставима*

### **Abstract**

*Man is associated with nature , that is, with plants and fauna and with subsurface and above-ground resources; in communication with each other . In the current era when ecological problems are expanding and solving them is an urgent task, the role of ecological consciousness and ecological culture in solving these problems is invaluable for humanity*

### **Kalit so'zlar**

*tarbiya , ekalogik ong , ekalogik madaniyat , ijtimoiy munosabat , jamiyat , oila , burch , masulyat , kelajak avlod.*

### **Ключевые слова**

*воспитание экологическое сознание , экологическая культура , социальная позиция , общество , семья , долг , ответственность , будущее поколение.*

### **Keywords**

*upbringing , ecological consciousness , ecological culture , social attitude , society , family , duty , responsibility , future generation.*

**Kirish** Global miqyosda tobora keskinlashib borayotgan ekalogik muammolar insoniyatdan atrof tabiiy muhitga bo'lgan munosabatini o'zgartirishni talab etmoqda.

Bu jarayonda ekologik ta'limni uzluksiz rivojlantirib borish muhim o'rin tutadi.

Ekologik ta'lim – tizimli va uzluksiz o'quv jarayoni bo'lib, uning maqsadi nazariy va amaliy bilimlarni, dunyoqarashni, xulq-atvor normalari va qoidalarini, shu jumladan atrof-muhitga, tabiatdan foydalanishga va umuman ekologiyaga munosabatni shakllantirishdir.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha jabhalar qatorida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik ta'lim-tarbiya sohasida to'laqonli huquqiy-me'yoriy baza yaratilgan. Jumladan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega”, 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar” deb ko'rsatib qo'yilganligi, shuningdek, “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunlar, sohaga doir boshqa qator hujjatlar ekologik ta'lim-tarbiya tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu borada o'tkazilgan tahlil natijalari yoshlarni tarbiyalashda ekologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish zaruratining mavjudligini hamda aholining ekologik madaniyatini rivojlantirishda kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda. Mazkur huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari talabalarining ekologik tarbiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri – talabalarda ekologik kompetentlikni, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish bilan birga, ularning o'z hududlarini obodonlashtirish, ko'chat-daraxtlar ekish va ularni o'z vaqtida parvarish qilish, ko'l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalashda ijtimoiy yordam ko'rsatish, tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromgohlarda obodonlashtirish ishlariga beg'araz yordam ko'rsatishni taqozo etadi. Bunday ishlar natijasida yoshlarda nazariy olingan bilimlar mustahkamlanishi bilan birga tabiat bilan bog'liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi. Talabalar insonning tabiatdagi o'rnini, ona shahri yoki qishlog'i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatining ahamiyatini, yer va havo, ko'l, daryolarni toza saqlash masalalarini hal etishda faol hayotiy nuqtayi nazarning dolzarb ekanini tushunib yetadilar. Aynan yoshlarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo'naltirilgan amaliy faoliyati individual ekologik ongning shakllanishida zaruriy shart hisoblanadi. Insoniyatni kun sayin o'sib borayotgan ehtiyojlari va sayyoramizda kamayib ketayotgan imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatning barqarorligini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish uchun har bir shaxs ekologik bilimlarga ega bo'lmog'i zarur, chunki sayyoramiz kelajagi o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik madaniyatiga bog'liq. Yoshlar o'rtasida ekologik bilim, ong, madaniyat hamda ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, ekologiya sohasining ilg'or innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda yanada takomillashishini, yoshlarning Ona tabiatni sevisish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarini oshirishni davrning o'zi talab etmoqda. Biroq, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratilayotgan bir paytda ekologik madaniyat tushunchasining mag'zini hamma ham birdek anglab yetayotgani yo'q.

Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, ularni muhofaza qilish masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy institutlar yosh avlodda tabiatga

mehrmuhabbat ruhini shakllantirish, ekologiyaga oid bilimlarni ular shuuriga singdirish zaruratini ko'rsatmoqda. Bu kelajakda atrof-muhitni muhofaza qila oladigan va tabiatdan oqilona foydalanadigan avlodni shakllantirishning muhim shartidir. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod tabiat haqidagi bilimlarni egallab, tevarak atrofning nozikligini, uning go'zalliklarini qalban his qila olsagina, ona-Vatanga, uning tabiatiga muhabbati oshadi. Ekologik ta'lim -tarbiya tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, insonni tabiatdan ongli ravishda foydalanish va ular qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish hamda tejamkorlikka o'rgatishda qo'l keladi. Ta'lim jarayonida talabalarda ekologik tarbiyani amalga oshirish o'z navbatida, ularning ekologik saviyasini, madaniyatini ko'tarish, huquqbuzarlik, shikastlanish, kelajakda kasbiy kasalliklarning oldini olishning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalarida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan turkum ko'rsatuv, eshittirishlar, ijtimoiy-ekologik roliklarni muntazam efirga uzatib borish, vaqtli matbuot nashrlarida maqolalar chop etish orqali targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish ham aholining ekologik madaniyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv sharoitida barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday vaziyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida o'zaro bog'liq, lekin nisbatan mustaqil ikki yo'nalishni bir – biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq: birinchisi, ekologik nazariy bilimlar majmuasi asosida insoniyatning tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirishdan iborat amaliy faoliyatni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, texnika, texnologiya taraqqiyotini oqilona tashkil qilish; ikkinchisi, tarixiy ekologik tajribalar asosida ekologik ta'lim – tarbiya ijtimoiy institutlari yordamida kishilarda ekologik ong, tafakkur va dunyoqarashni rivojlantirishdir. Bu yo'nalishlarni umuminsoniy ma'nfaatlar negizida uyg'un taraqqiy ettirish, pirovard natijada faol ekologik madaniyatni shakllanishida va ularning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida katta rol o'ynaydi. Tabiat va jamiyat munosabatlarini ilmiy tushunish asosida ta'lim – tarbiya tizimida tegishli vosita va usullarni zamon talablari darajasida takomillashtirib, amaliyotda qo'llash, ekologik madaniyatni rivojlantirishning zaruriy shartidir. Buning uchun ta'lim-tarbiyaning barcha yo'nalishlarini, usullarini, vositalarini uyg'un rivojlantirish hamon dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli, aholining ziyoli qatlamini, soha mutaxassislarini, oliy ta'lim muassasalari talabalarini ekologik kompetentli qilib rivojlantirish, ta'lim maqsadlari mazmuni, vosita va metodlarini belgilash, valeologik, ekologiyaga oid bilimlarini kengaytirish, ilmiy asoslangan o'quv materiallari va qo'llanmalarni ishlab chiqish va pedagogik amaliyotga joriy etish dolzarb pedagogik muammo bo'lib hisoblanadi. Ekologik bilimlar odamlar o'zlarining hozirgi va kelgusidagi biosfera bilan qanchalik uzviy bog'langanini, tabiatni muhofaza etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir insonda atrof-muhit holati uchun mas'ullik hissini tarbiyalash, hayvonot va nabotot olamini asrash obyektiv zarurat ekanini tushunib yetishlarining muhim sharti hisoblanadi. Mazkur xayrli ishlarni amalga oshirishda keng jamoatchilikning o'rni ham beqiyos. Ekologik ta'lim strukturasi:ota ona (oila).Bog'cha ,maktablar tizimi ,kasb xunar bilim yurtlari , oliygox. Bunda xar bir bosqichning uziga xos xususiyati mavjud bolib unda o'rganadigan materiallar didaktikaning umumiy printsiplaridan chetga chiqmagan xamda tanlanilishi va o'rgatilishi zarur.

**Adabiyotlar taxlili:** “Oliy ta’lim muassasasi talabalari o’rtasida ekalogik ong va ekalogik madaniyat tushunchalarini shakllantirish mexanizmlari” mavzusida maqola yozish uchun adabiyotlarni tahlil qilish, ekalogik ong va madaniyatni shakllantirishda qo’llaniladigan metodlar, psixologik va pedagogik yondashuvlar, shuningdek, ekalogik ta’limning o’rni kabi masalalarni o’z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili quyidagi asosiy yo’nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

**1. Ekologik ongning ta’rifi va ahamiyati:**

- Ekologik ong — bu insonlarning tabiatga nisbatan mas’uliyatli va etik qarashlari, atrof-muhitni saqlashga bo’lgan ichki talablaridir. Ekologik ongning shakllanishi va rivojlanishiga oid tadqiqotlar (masalan, environmental psychology, sustainability education) ekalogiyaning atrof-muhitga ta’sirini va uning insonlar hayoti uchun muhimligini ta’kidlaydi.

- Adabiyotlar tahlilida ekalogik ongning shakllanishi uchun o’qitish usullari va metodologik yondashuvlar, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida qaysi pedagogik yondashuvlarning samarali ekani ko’rib chiqiladi.

**2. Ekologik madaniyatning rivojlanishi:**

- Ekologik madaniyat tushunchasi insonlarning tabiatga bo’lgan hurmatini, ekalogik qadriyatlarni qadrlashni va ularni kundalik hayotda amalda qo’llashni o’z ichiga oladi. Bu tushuncha ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko’rsatadi.

- Ekologik madaniyatni shakllantirishda o’qituvchilar va ta’lim muassasalarining roli haqida adabiyotlarda ko’plab fikrlar mavjud. Masalan, ekalogik ta’limning nafaqat akademik bilimlar berish, balki ekalogik xulq-atvor va mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilganligi ko’rsatiladi.

**3. Pedagogik yondashuvlar va ekalogik ta’lim:**

- Ekalogik ta’limning samaradorligi haqida ko’plab tadqiqotlar mavjud. Adabiyotlar tahlilida ekalogik ta’limning zamonaviy metodikalarini o’rganish va ularni oliy ta’lim tizimiga joriy etishning ahamiyati, masalan, interfaol o’quv usullari, loyiha asosidagi ta’lim, amaliy faoliyatlar va tabiatga yaqinlashtiruvchi o’quv dasturlari ko’rib chiqiladi.

- Ekalogik ta’limni tashkil etishda ekalogik ongni rivojlantirish va uni jamiyatda tarqatishning ijtimoiy va madaniy ahamiyati ham alohida o’rganiladi.

**4. Oliy ta’limda ekalogik madaniyatni shakllantirishning mexanizmlari:**

- Oliy ta’lim muassasalarida ekalogik madaniyatni shakllantirish uchun qo’llaniladigan metodlar, masalan, ekalogik konferensiyalar, ilmiy tadbirlar, atrof-muhitga oid amaliy tadbirlar va talabalar o’rtasidagi ijtimoiy loyihalar haqida adabiyotlar mavjud.

- Talabalarni ekalogik ong va madaniyatga jalb qilishda oliy ta’lim muassasalarining rolini baholash uchun akademik, ijtimoiy va madaniy mexanizmlar tahlil qilinadi.

**5. Psixologik va ijtimoiy yondashuvlar:**

- Ekalogik ongning shakllanishi nafaqat ilmiy bilimlarga asoslangan, balki psixologik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Adabiyotlar tahlilida talabalar psixologiyasi, ekalogik xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan metodologiyalar va motivatsiya omillari o’rganiladi.

**Xulosa:** Oliy ta’lim muassasalarida ekalogik ong va madaniyatni shakllantirishning

samarali mexanizmlarini aniqlash uchun ekologik ta'lim va ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik metodlar va ijtimoiy yondashuvlarni chuqur o'rganish zarur. Adabiyotlar tahlili ekologik ongni shakllantirishda o'qituvchilarning o'rni, ta'lim metodlari va ijtimoiy loyihalar kabi elementlarning o'zaro aloqasini yoritadi. Fikrimizcha, bunday harakat doimiy, muntazam, uzluksiz tarzda oilada, mahallalarda, ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani, madaniyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan o'quv kurslari va o'quv modullari mazmuniga ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, bu boradagi mavjud muammolar, ularning yechimi, bu jarayonda har bir shaxsning, jumladan, talabalarning mas'uliyati, tabiatga, uning ne'matlariga oqilona munosabati, pirovard natijada insonning hayoti mobaynida ekologik jihatdan qulay muhitda yashashini ta'minlash masalalarini yoritib beruvchi mavzular va ma'lumotlarni singdirish, o'qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o'qitish uslublarini takomillashtirish, mustaqil talimga, shuningdek, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir turli tadbirlar, davra suhbatlari, intellektual o'yinlar, tanlovlar, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ekomarofonlar, sport musobaqalari, tabiat qo'yniga sayr, sayohatlar tashkillash muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Maxsudova G. ( 2023 ) Ekologiya ongini ta'lim tarbiyada shakllantirish . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS .
2. Mamajonov Sh. ( 2023 ) Oliy ta'limda ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish zaruriyati . Ilmiy anjumanlar .uz
3. Alisher A. ( 2023 ) Ekologik ta'lim va ekologik madaniyat . Huquq va burch jurnali .
4. Yusufjon Karimov .( 1995) Oliy o'quv yurtlari talabalariga ekologik ta'lim berishning nazariy asoslari.